

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISH

Umirova Umida Zakirovna

*Urganch shahar 31-son umumiy o'rta ta'lism maktabi*

*Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

Matnazarova Iqbol Komilovna

*Urganch shahar 31-son umumiy o'rta ta'lism maktabi*

*Biologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'llaniladiga interfaol metodlar haqida fikr yuritilga.

**Kalit so'zlar:** interfaol metod, metod, ta'lism metodi, ko'nikma, malaka, ta'lism, tarbiya, fikriy hujum.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum ko'nikma va malakalarini shakllantirish, o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan ta'lism jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Bugungi kunda ta'lism-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan keng foydalanilmoqda. Bu metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lism oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

"Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interact" (rus tilida "interaktiv") shaklida ifodalanib, lug'aviy nuqtayi nazardan "inter" - o'zaro, ikki taraflama, "akt" - harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi. O'qituvchi interfaol metodni qo'llash orqali o'quvchilarning aniq ta'limi maqsadga erishishda o'zaro hamkorlikka

asoslangan harakatlarni tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorar qilish, tahlil qilish va xolis baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interfaol metodlar o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar deb qaralmaydi, balki bu ta'lism samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash yo'li orqali ta'lism jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir.

Til ta'limida bir qancha interfaol ta'lism metodlaridan foydalanish mumkin. Bulardan, "Konseptual jadval", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Insert", "BBB" va shu kabi o'nlab interfaol ta'lism shakllarini qo'llash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bu interfaol ta'lism shakllari "Grafik organayzerlar" deb ham yuritiladi. Organayzer inglizcha "tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi" ma'nosini bildiradi. Axborot texnologiyalari sohasi atamasi sifatida ishlatiladi. Aniqrog'i, Power-point va shu kabi dasturlarda tayyorlanadigan vizual ko'rgazmali namoyish

usuli hisoblanadi. Tahliliy ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari sifatida organayzerlar (grafik tashkil etuvchilar)ning vazifasi muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatiga ega,ya'ni,har bir pedagogo ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati,kasbiy mahoratidan kelib chiqib holda ijodiy tashkil etishi lozim.

Qanay shakl,metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil,erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

“Fikriy hujum” metodi o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash,ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish ,muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni toplash,shuningdek,ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabli bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsija etilgan bo'lib,uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qilash,har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir.Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laming kengligiga bog'liq bo'ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

“Yalpi fikriy hujum” metodi J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib,uni bir necha o'n nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qo'llash mumkin. Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladei.Har biri 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi.

Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haiqda guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi.Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarininig faoliyatlarini ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shaykhislamov, N. (2020). The Role of Lingvoculturology in Speech Culture. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqodlar va metodlar, 136-140.
2. Shaykhislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics -Linguoculturology. Мировая наука, 5(41), 33-36.
3. Shaykhislamov, N. (2020). Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim, (2), 186-188.
4. Shayxislamov, N. (2020). Proverb as an object of linguistic analysis. Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlari, 31-33.